



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY- EMOTSIONAL KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs
magistranti

Meliboyeva Gulsanam

Inomjon qizi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha samarali pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Biz bilamizki, ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolaning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, o'ziga va boshqalarga nisbatan hurmat, hamdardlik, muomala madaniyati kabi ko'nikmalarni egallashida muhim ahamiyatga ega. Quyidagi maqolada o'yin, nutqni rivojlantiruvchi mashq va ta'limiy faoliyatlar hamda hamkorlikka asoslangan faoliyatlar orqali bu kompetensiyalarni rivojlantirish usullari ilmiy-nazariy va amaliy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy, emotsional, hamdardlik, emotsional ong, psixopedagogik, kompetensiya, empatiya, ijodiy ifoda, ichki pozitsiya, kommunikativ, dramatizatsiya.



Kirish. Har bir maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom bo'lib voyaga yetishini ta'minlash uchun sog'lom turmush tarziga odatlantirish vazifasi qo'yilgan. Bu o'z navbatida bolajonlarni jismonan va ruhan chiniqtirish orqali sog'lom farzand qilib voyaga yetkazish, ma'naviyatini yuksaltirish borasida yaxshi ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davr bola atrofidagi odamlar bilan munosabat o'rnatishni, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishni, boshqalar hissiyotni tushunishni, hamkorlik, muloqot qilishni o'rganadi. Bu jarayonlarning barchasi ijtimoiy-emotsional rivojlanish deb ataladi va uning poydevori 3-7 yosh davrda shakllanadi. Shu sababli, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning faqat bilimi emas, balki ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga katta e'tibor berishimiz kerak.

Maktabgacha ta'lim bolaning turli tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. U hayotining keyingi bosqichlarida, butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

Kompetensiya- bolaning bilim, malaka, ko'nikma va qadriyatlar majmuidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari 5 ta bo'lib, ular bolaning har tomonla rivojlanishini ta'minlaydi. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining ikkinchi yo'nalishi "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" bo'lib, unda 6-7 yoshli bola ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagilarni egallaydi:

- O'z "Men" ini va boshqa insonlar hayotiy faoliyat muhitidagi ro'li to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- O'z hissiyotlarini boshqardi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;



- O'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;

- Kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;

- Murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi;

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Natijada bola o'zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiradi.

Rus pedagogi A. S. Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan. U jamoada shaklangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

-Doimiy tetik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorgarlik;

-O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;

-Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

-Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;

-Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;

-O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olishi ko'nikmasi;

Tarbiyachilar va ota-onalar har doim bolalarga to'g'ri yo'nalish va ko'rsatma berishi kerak. Masalan: qaysi jamoaga qo'shilish, kimlar bilan do'stlashish haqida. A. Navoiy aytanidek: bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhbatlaridan bahramand bo'lishlari kerak.



Ijtimoiy ichki shaxsiy boylik, induvidial yutuq sifatida qabul qilish va uning shaxsda nafaqat hozir, balki, kelajakda boshqa ijtimoiy makonda, shaxsiy tanlov va faol ichki pozitsiyaga asoslangan faol faoliyatga tayyorgarlik sifatida amalaga oshirilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishining ko'p bosqichli xususiyatidan dalolat beradi.

Bolalarda empatiya, ijodiy ifoda va hissiy ongni rivojlantirishda san'at hamda teatrni o'rni katta. Dramatizatsiya orqali bolaning o'z harakati, his-tuyg'ulari va ularning boshqalarga ta'siri ustida ongli fikrlashi kuychayadi.

Shuningdek, o'yin orqali o'rgatish pedagogga har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos, individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining notekisligi sababli, bir xil mazmundagi mashg'ulotlarga har xil javob qaytarishi mumkin. Ta'limiy o'yinlar bu farqlarni yumshatib, har bir bolaning o'z tempida rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, guruhli o'yinlar bilan bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar: navbat kutish, hamkorlik qilish, boshqani tinglash va tushunish, umumiy maqsadga xizmat qilish kabi fazilatlar rivojlanadi

Zamonaviy ta'limda interaktiv texnologiyalar bilan boyitilgan o'yinlar, xususan, raqamli didaktik o'yinlar ham o'z o'rniga ega. Planshet, sensorli ekranlar yordamida ishlab chiqilgan ta'limiy ilovalar bolalarning diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash hamda muomala madaniyatini samarali rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ammo, bu kabi texnologiyalarni qo'llashda ekran vaqtining cheklanishi, pedagogik nazorat va emotsional muvozanatni saqlash muhim sanaladi.

Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bolaning yangi g'oyalar yaratishi, fikrlash doirasini kengaytirishi va muammolarni ijodiy hal qilish



qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, konstruktiv o'yinlar orqali ular ob'ektlarni turli usullarda birlashtirish, yangi shakllar yaratish imkoniga ega bo'ladilar.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham o'yinlarning o'rni katta. Guruhli o'yinlar bolalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, murosaga kelishga va jamoada ishlashga o'rgatadi. Bu yoshdagi bolalarda do'stlik, hamkorlik, boshqalar his-tuyg'ulariga e'tibor kabi muhim ijtimoiy fazilatlar shakllanishiga yordam beradi.

Ta'limiy o'yinlarning samaradorligini oshirish uchun ularni maktabgacha ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtirish, o'yinlarning mazmunini aniq pedagogik maqsadlarga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, o'yin jarayonida bola faoliyatini kuzatish va baholash ham muhim, bu orqali bolaning rivojlanish darajasi va o'rganish natijalari aniqlanadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ham ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun zaruriy omildir. Uy muhitida bolalar bilan sifatli va mazmunli vaqt o'tkazish, ularning his tuyg'ularini e'tibor qaratish, ijobiy emotsiyalarni ifoda qilish – bolada ruhiy barqarorlik va o'ziga ishonchni shakllantiradi.

Xulosa. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolalarning shaxs sifatida barkamol bo'lib yetishishi, jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi va keyingi ta'lim bosqichlarda yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin, emotsional muloqot va hamkorlikka asoslangan mashg'ulotlar mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir bola o'z his-tuyg'ularinilarini anglab, boshqalarning his-tuyg'ulariga nisbatan sezgir bo'lishi, to'g'ri muloqotga kirisha olishi zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridandir. Shu bois, maktabgacha ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional rivojlanishga doimiy pedagogik e'tibor qaratish kerak.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ilk Qadam Davlat o'quv dastur takomillashgan ikkinchi nashr. 2022.
2. M. Q. Jabborova “Kompleks yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish”.Avtoreferat TDPU “Ilmiy axborotlari”jurnali tahririyati tomonidan 2023-yil 13-iyul.
3. Jabborova M. Q. The importance of education directed to the personality of the child in ensuring the education, upbringing, physical, mental and spiritual maturity of the child. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the international scientific conference 11 November, 2022 - Berlin 2022. Issue 17 – 162 p
4. Jabborova M, Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning asosiy funksiyalari. Scientific aspect and trends in the fields of scientific research .International scientific online conference. Part 7. February 28th .collections of scientific works. Warshara 2023.
5. Z.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika darslik. Toshkent 2019.
6. Винокурова Ольга Вячеславовна” Динамика социо-эмоционального развития детей шести-семи лет в образовательном процессе дошкольных учреждений”. Автореферат.